

STARTAPLAR EKOTIZIMI RIVOJI VA INNOVATSIYAVIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI

Buriyev Akmal Ahmat o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

3-bosqich talabasi

Ibragimov G'anijon G'ayratovich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

“Innovatsion menejment” kafedraasi ilmiy dotsenti

Annotatsiya: ushbu maqolada startaplar ekotizimi rivoji va uning innovatsion iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilinadi. Startaplar yangi texnologiyalarni yaratish, iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish, ish o'rinlari yaratish va raqobatbardosh xizmatlar ishlab chiqishda muhim vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada startap ekotizimining tarkibiy elementlari, rivojlanish strategiyalari va mamlakat iqtisodiyotiga qo'shgan hissi batafsil tahlil qilinadi. Shu bilan birga, startaplar faoliyati orqali innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: startap, innovatsion iqtisodiyot, texnologik rivojlanish, ekotizim, biznes-inkubator, venchur investitsiyalar, innovatsiyalar.

Аннотация: в данной статье анализируется развитие экосистемы стартапов и её влияние на инновационную экономику. Стартапы рассматриваются как важный инструмент для создания новых технологий, стимулирования экономического роста, создания рабочих мест и разработки конкурентоспособных услуг. В статье подробно рассматриваются структурные элементы экосистемы стартапов, стратегии развития и их вклад в экономику страны. Также предлагаются практические рекомендации по развитию инновационной экономики через деятельность стартапов.

Ключевые слова: стартап, инновационная экономика, технологическое развитие, экосистема, бизнес-инкубатор, венчурные инвестиции, инновации.

Abstract: this article analyzes the development of the startup ecosystem and its impact on the innovation-driven economy. Startups are considered a crucial tool for

creating new technologies, contributing to economic growth, generating employment, and developing competitive services. The article examines the structural components of the startup ecosystem, development strategies, and their contribution to the national economy. Practical recommendations for fostering an innovation economy through startup activities are also provided.

Keywords: startup, innovation economy, technological development, ecosystem, business incubator, venture capital, innovations.

Kirish:

So‘nggi o‘n yilliklarda global iqtisodiyotning tez o‘zgarishi, raqamli transformatsiya va texnologik rivojlanish startaplarni zamonaviy iqtisodiyotning muhim drayveriga aylantirdi. Startaplar – bu yangi g‘oyalar va texnologiyalar asosida tezkor rivojlanayotgan kichik bizneslar bo‘lib, ular innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, raqobatbardosh mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish, shuningdek, ish o‘rinlari yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Startap ekotizimi tushunchasi startaplarni qo‘llab-quvvatlashning barcha tarkibiy elementlarini o‘z ichiga oladi: biznes-inkubatorlar va akseleratorlar, moliyaviy resurslar (venchur fondlar, grantlar), tarmoq va hamkorlik imkoniyatlari, shuningdek, davlat siyosati va qonunchilik. Ushbu ekotizim startaplarning muvaffaqiyati va ularning iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasini belgilaydi.

Ko‘plab mamlakatlar startap ekotizimini rivojlantirish uchun maxsus strategiyalar ishlab chiqmoqda. Masalan, AQSh va Isroilda startaplar yuqori texnologiyali sektorlarni rivojlantirish va innovatsiyalarni tijoratlashtirishda asosiy drayver sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda ham startaplar ekotizimi iqtisodiy o‘rish va yangi ish o‘rinlari yaratish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ushbu maqola startaplar ekotizimi rivojining asosiy yo‘nalishlarini, uning innovatsion iqtisodiyotga ta‘sirini tahlil qilish, shuningdek, amaliy tavsiyalar berishni maqsad qilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Startaplar ekotizimi va uning innovatsion rivojlanishdagi o'рни zamonaviy iqtisodiyot tadqiqotlarida alohida yo'nalish sifatida shakllangan. Jahon olimlari startaplarni yuqori texnologiyali g'oyalar yaratish, bozorni yangilash va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda muhim drayver sifatida ko'rsatadilar. S. Blank va B. Dorf (2012) startaplar faoliyatining metodologik asoslarini o'rgangan holda, ularni an'anaviy biznesdan farqli tarzda bozorni sinovdan o'tkazish, minimal ishlaydigan mahsulot (MVP) yaratish va mijozlar ehtiyojiga moslashuvchanlik tamoyillariga asoslanishi zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning yondashuvida startap muvaffaqiyati innovatsion g'oyani muntazam iteratsiyalar orqali takomillashtirish va bozor talabiga moslashtirish bilan izohlanadi.

Startaplarni boshqarishda E. Ries (2011) tomonidan ishlab chiqilgan "Lean Startup" metodologiyasi muhim nazariy asos sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv eksperimentlar orqali tezkor o'rganish, resurslardan samarali foydalanish, bozor ehtiyojlarini real vaqt rejimida aniqlash va mahsulotni bosqichma-bosqich takomillashtirish mexanizmlariga tayanadi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur model startaplarning bozordagi noaniqlik sharoitida samarali ishlashini ta'minlovchi vosita sifatida e'tirof etiladi. Startap ekotizimi strukturasini chuqur o'rgangan Mason va Brown (2014) ekotizimni biznes inkubatorlari, akseleratorlar, moliyaviy resurslar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, korporativ hamkorlik tarmoqlari hamda qulay tartibga solish siyosati kabi asosiy bo'g'inlardan iborat tizim sifatida ta'riflaydi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, ushbu omillar startaplarning dastlabki bosqichda shakllanishi, investorlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yishi va innovatsion mahsulot yaratish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Texnoparklar va akseleratsiya markazlarining o'рни haqida Clarysse va hamkorlarining tadqiqotlarida ularning startaplarga texnik infratuzilma, ekspertlik yordami, mentorlik xizmati va bozor bilan bog'lanish imkoniyatlari yaratib berishi alohida ta'kidlanadi.

Startaplarni moliyalashtirish mexanizmlariga doir adabiyotlarda Brown & Mason (2014) venchur kapital, biznes farishtalar, korporativ investitsiyalar va crowdfunding platformalarining tobora kengayib borishi startap ekotizimini diversifikatsiya qilayotganini qayd etadi. OECD va Jahon Bankining so'nggi hisobotlarida esa startaplar raqamli iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismiga aylangani, ularning o'sishi internet infratuzilmasi sifati, kiberxavfsizlik darajasi, elektron hukumat xizmatlari rivoji va biznes

ro'yxatidan o'tkazish jarayonining soddaligi kabi omillarga bog'liq ekani ko'rsatib o'tiladi.

Jahon amaliyoti - AQSh, Isroil, Janubiy Koreya va Buyuk Britaniya misolida - startap ekotizimi ilm-fan, texnologiya va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar yaratishda markaziy o'rin tutishini tasdiqlaydi. World Economic Forum (2021) ma'lumotlariga ko'ra, startaplar innovatsion faollikni oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda yetakchi rolga ega.

O'zbekiston bo'yicha so'nggi ilmiy tadqiqotlar ham startaplar ekotizimining barqaror rivojlanib borayotganini ko'rsatadi. IT Park, Innovatsion rivojlanish vazirligi va Yoshlar ishlari agentligi tomonidan taqdim etilayotgan grantlar, akseleratsiya dasturlari, soliq imtiyozlari va mentorlik xizmatlari ekotizimni qo'llab-quvvatlashning muhim yo'nalishlari hisoblanadi. Mahalliy olimlar - X. Abdullayev, A. To'laganova, Sh. Ergashev va boshqalar - O'zbekiston sharoitida vechur kapital bozorini shakllantirish, innovatsion ta'limni rivojlantirish, texnoparklar samaradorligini oshirish va startaplarni xalqaro ekotizimga integratsiya qilish zarurligini ta'kidlashadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada startaplar ekotizimi rivoji va uning innovatsion iqtisodiyotga ta'sirini aniqlash uchun bir nechta tadqiqot metodlari qo'llanildi. Tadqiqot jarayoni ilmiy tahlil, solishtirma metod, suhbat va so'rovnoma, shuningdek empirik tahlil asosida olib borildi.

Tahliliy metod orqali startaplar ekotizimi va innovatsion iqtisodiyotga oid ilmiy adabiyotlar, tadqiqotlar va statistik ma'lumotlar o'rganildi. Shu yo'l bilan startaplarning iqtisodiy o'sishga, ish o'rinlari yaratishga va texnologik innovatsiyalarni rivojlantirishga ta'siri aniqlangan.

Solishtirma metod yordamida turli mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi, jumladan AQSh, Isroil va Buyuk Britaniya startap ekotizimlari muvaffaqiyati va ularni qo'llab-quvvatlovchi davlat siyosati, moliyaviy resurslar va ilmiy hamkorlik elementlari solishtirildi.

Suhbat va so‘rovnoma metodlari startap asoschilari, inkubator rahbarlari va ekspertlar bilan intervyular orqali startaplarning rivojlanishdagi muammolari, innovatsion mahsulotlarni yaratish jarayoni va bozor talablariga moslashish tajribalarini o‘rganishga imkon berdi.

Empirik tahlil natijalari startaplar soni, ish o‘rinlari yaratish, venchur investitsiyalar hajmi, innovatsion mahsulotlar va patentlar soni asosida baholandi. Natijada startap ekotizimi rivoji va innovatsion iqtisodiyot o‘sishi o‘rtasida mustahkam ijobiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi.

Startaplar ekotizimining nazariy asoslari.

Startaplar ekotizimini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish uchun, avvalo, “startap”, “innovatsion ekotizim” va “raqamli iqtisodiyot” tushunchalarining mazmun-mohiyatini aniqlab olish zarur. Startap (ing. *startup*) - yuqori texnologiyalarga asoslangan, tez o‘rishga mo‘ljallangan va bozorning yangi segmentini yaratishga qaratilgan innovatsion biznes loyihasidir. U an’anaviy korxonalardan farqli ravishda, moslashuvchan boshqaruv tizimi, eksperimentlarga tayyorlik, yuqori risk, tez o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish, kam resurs bilan yangi qiymat yaratish kabi xususiyatlarga ega.

Nazariy manbalarda startaplar ekotizimi birgalikda ishlaydigan subyektlar majmui sifatida izohlanadi. U quyidagi asosiy elementlardan iborat: startap jamoalari, mentorlar, investorlar, venchur fondlari, texnoparklar, ilmiy muassasalar, davlat qo‘llovi, akseleratorlar va bozor infratuzilmasi. Ushbu elementlar o‘zaro hamkorlikda ishlagan taqdirdagina to‘laqonli ekotizim shakllanadi. Clarysse va boshqalar ta’kidlaganidek, startaplar ekotizimi - bu faqat texnologik muhit emas, balki bilimlar almashinuvi, ijtimoiy tarmoqlar faolligi va innovatsion madaniyatning uyg‘unlashgan tizimidir.

Startap g‘oyasining shakllanishidan boshlab to bozorga kirishigacha bo‘lgan jarayon bir necha bosqichlardan iborat:

1. innovatsion g‘oyani yaratish;
2. muammoni aniqlash va bozorni o‘rganish (problem-market fit);
3. minimal ishlaydigan mahsulot (MVP) yaratish;
4. mijozlar ehtiyojini sinash (customer development);
5. biznes modelni aniqlash;

6. investitsiya jalb qilish;

7. masshtablash va barqaror rivojlanish.

E. Riesning “Lean Startup” modeli startaplarning ushbu bosqichlarini takomillashtirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuv “tajriba → natija → tahlil → takomillashtirish” sikliga asoslanadi. Ya’ni, startap o‘z g‘oyasini bozorga tezda sinovdan o‘tkazadi, natijaga qarab xatolarni tuzatadi va yangilangan mahsulotni qaytadan tekshiradi. Natijada vaqt va resurslar tejab qolinadi, risklar kamayadi.

Startaplar ekotizimining nazariy jihatlaridan yana biri - innovatsion tizimlar modeli (National Innovation System) bilan bog‘liq. Bu nazariyaga ko‘ra, innovatsion rivojlanish davlat siyosati, ta’lim sifati, ilmiy-tadqiqot institutlari, xususiy sektor va investitsiya bozori o‘rtasidagi faol o‘zaro hamkorlikka tayangan holda amalga oshadi. Startaplar ushbu tizimning faol elementi bo‘lib, ilmiy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etuvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Startaplar ekotizimining yana bir nazariy asosini R. Florida tomonidan ishlab chiqilgan “kreativ sinf” konsepsiyasi tashkil etadi. Unga ko‘ra, iqtisodiy rivojlanish innovatsion mahsulotlar yaratish qobiliyatiga ega bo‘lgan kreativ mutaxassislar, tadbirkorlar va IT-soha vakillarining faolligi bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu yondashuv startaplar rivojiga ta’sir qiluvchi inson kapitalining ahamiyatini ta’kidlaydi. Bunda ta’lim tizimi, iqtidorli yoshlar uchun imkoniyatlar, texnologik ko‘nikmalarni oshirish dasturlari muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, Porterning “klasterlar nazariyasi” ham startaplar ekotizimiga tatbiiq etiladi. Klaster modeli bo‘yicha geografik jihatdan yaqin hududlarda joylashgan texnoparklar, ilmiy markazlar, universitetlar va korxonalar bir-biri bilan hamkorlik qilgan holda innovatsion mahsulot yoki xizmatlarni yaratish samaradorligini oshiradi. Dunyo bo‘yicha mashhur Silikon vodiysi, Tel-Aviv texnologik klasteri, Singapur One-North innovatsion hududi - klasterlar nazariyasining amaliy namunasiidir.

Tahlil va natijalar.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, startaplar ekotizimi rivoji innovatsion iqtisodiyotning o‘sishida muhim rol o‘ynaydi. Olingan ma’lumotlar startaplarning iqtisodiy o‘sish, ish o‘rinlari yaratish va texnologik yangiliklarni amalga oshirishga bevosita ta’sir qilayotganini ko‘rsatdi. Tahlil jarayonida startaplar soni va ularning turli sektorlarga taqsimlanishi, ish o‘rinlari yaratish darajasi, venchur investitsiyalar hajmi va innovatsion

mahsulotlar soni tahlil qilindi. Yuqori texnologiyali sektorlar va IT-startaplar mamlakat iqtisodiyotining tez rivojlanishiga eng katta hissa qo'shmoqda.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan startap ekotizimlari muvaffaqiyatli rivojlanadi. AQSh va Isroil tajribasi startaplarning muvaffaqiyati, ularni rag'batlantiruvchi soliq siyosati, moliyaviy grantlar va akseleratorlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Empirik tahlil natijalari startaplarning ijobiy ta'sirini ko'rsatadi: iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish, ish o'rinlari yaratish, innovatsion mahsulotlar yaratish va moliyaviy resurslarni jalb qilish. Shu bilan startap ekotizimi rivoji va innovatsion iqtisodiyot o'sishi o'rtasida mustahkam ijobiy bog'liqlik aniqlangan.

Texnologik modernizatsiya: startaplar ekotizimida texnologik modernizatsiya innovatsion jarayonlarning asosiy drayveri bo'lib, raqamli yechimlar, avtomatlashtirilgan tizimlar va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish vositalarining joriy etilishini anglatadi. Ushbu modernizatsiya iqtisodiyotning texnologik yangilanishiga, ishlab chiqarish samaradorligining ortishiga va innovatsion mahsulotlar paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

Risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish: startap ekotizimida risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish bozor, moliyaviy va texnologik xatarlarni oldindan aniqlash va minimallashtirishga qaratilgan. Ilmiy asoslangan risk tahlili startaplarning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi va venchur hamda innovatsion loyihalarga bo'lgan investor ishonchini oshiradi.

Loyiha boshqaruvi metodologiyalarini joriy etish: agile, Scrum va Lean kabi zamonaviy loyiha boshqaruvi metodologiyalarining tatbiqi startaplar jarayonlarini optimallashtiradi, moslashuvchan boshqaruvni ta'minlaydi va mahsulotni tezkor takomillashtirish imkonini beradi. Ushbu metodologiyalar resurslardan samarali foydalanish, mijoz ehtiyojlariga tez javob berish va innovatsion jarayonlarni tezlashtirishga xizmat qiladi.

Hamkorlikni kuchaytirish: startap ekotizimida hamkorlikni kuchaytirish universitetlar, ilmiy markazlar, akseleratorlar, investorlar va davlat institutlari o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi. Strategik

hamkorlik g'oyalarning tijoratlashtirilishini tezlashtiradi, yangi bozor imkoniyatlarini kengaytiradi va bilimlar almashinuvi samaradorligini oshiradi.

Monitoring va nazoratni kuchaytirish: monitoring va nazorat tizimining kuchaytirilishi startap faoliyatidagi jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatish, natijadorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish va muammolarni erta aniqlash imkonini beradi. Bu esa ekotizimning boshqaruv sifatini oshiradi, qaror qabul qilish jarayonini ilmiy asoslangan qiladi va innovatsiyaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, startaplar ekotizimi innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishida muhim vosita hisoblanadi. Startaplar yangi texnologiyalar yaratish, iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish, ish o'rinlari yaratish va raqobatbardosh xizmatlarni ishlab chiqishda markaziy rol o'ynaydi. Davlat siyosati, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ilmiy hamkorlik startaplarning muvaffaqiyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Takliflar:

1. Davlat darajasida startaplarni moliyaviy va huquqiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish; soliq imtiyozlari va grant dasturlarini kengaytirish.
2. Startap inkubatorlari va akseleratorlarni rivojlantirish, yangi tadbirkorlar uchun resurs va maslahat xizmatlarini oshirish.
3. Universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali ilmiy-texnikaviy innovatsiyalarni tijoratlashtirishni rag'batlantirish.
4. Xalqaro tajribani o'rganish va eng yaxshi amaliyotlarni mamlakat sharoitiga moslashtirish orqali startap siyosatini modernizatsiya qilish.
5. Startaplar uchun malakali kadrlar tayyorlash, yosh tadbirkorlarni rag'batlantirish va ularni global bozor bilan integratsiyalash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Blank, S. (2013). The Four Steps to the Epiphany. K&S Ranch.

2. Ries, E. (2011). The Lean Startup: How Today's Entrepreneurs Use Continuous Innovation to Create Radically Successful Businesses. Crown Business.
3. Mason, C., & Brown, R. (2014). Entrepreneurial Ecosystems and Growth-Oriented Entrepreneurship. OECD.
4. Isenberg, D. (2010). How to Start an Entrepreneurial Revolution. Harvard Business Review.
5. World Economic Forum. (2021). Global Startup Ecosystem Report.
6. Aulet, B. (2013). Disciplined Entrepreneurship: 24 Steps to a Successful Startup. Wiley.
7. OECD (2019). The Missing Entrepreneurs 2019: Policies for Inclusive Entrepreneurship. OECD Publishing.
8. Lerner, J. (2012). Boulevard of Broken Dreams: Why Public Efforts to Boost Entrepreneurship and Venture Capital Have Failed – and What to Do About It. Princeton University Press.
9. Startup Genome (2020). Global Startup Ecosystem Report 2020.